

Bugun, 4-noyabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida **"Informatika va kommunikatsion texnologiyalar 2019" (ICISCT 2019)** nomli xalqaro ilmiy-texnik anjuman o'z ishini boshladi.

Anjumanning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o'rinbosari **Umarov Olimjon Muxamadjanovich**, TATU rektori **Teshabayev To'liq Zakirovich**, shuningdek, Kanada, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, J.Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Chexiya Respublikasi, Litviya, Serbiya, Italiya va Bolgariya davlatlarining **30** nafardan ortiq professor-o'qituvchilari hamda TATUning professor-o'qituvchilari, talabalari va yurtimizda AKT sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislar ishtirok etishmoqda.

Tadbirning ochilish marosimida TATU rektori T.Teshabayev so'zga chiqib, universitetda **Xalqaro Elektronika va Elektrotexnika muxandislar instituti (IEEE)** hamkorligida tashkil etilayotgan ushbu katta tadbir, nafaqat axborot kommunikatsiya, balki fan, ta'lim sohalarini ham qamrab olayotgani katta yutuq ekanligini, ushbu xalqaro ilmiy-texnik anjumanida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, kompyuter fanlari, kutubxonashunoslik, sun'iy intellekt, matematik dasturlash, axborot xavfsizligi, rabototexnika, tarmoq texnologiyalari kabi bugunning muhim yo'nalishlarini qamrab olishi bilan ham ahamiyatli ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi.

- Oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish oldimizda turgan bugunning muhim masalalaridan biridir, - deydi T.Teshabayev anjuman ishtirokchilarini samimiy qutlar ekan.

Ushbu anjumanda ko'tariladigan masalalar axborot kommunikatsiya sohasida vujudga kelayotgan muhim masalalarni yechishda, ilg'or texnologiyalarni jamiyatimizga tadbiiq etilishida, mamlakatimiz hamda xorijdan tashrif buyurgan mutaxassislar o'rtasida bilim va tajriba almashinish uchun katta tajriba maydonchasi bo'ladi.

Anjuman 6-noyabr kuniga qadar o'tishi rejalashtirilgan.

TATU matbuot xizmati